

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/05.06.2020.K/B.91.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

G‘AYBULLAYEVA OZODA OBID QIZI

***INULA HELENIUM L.* O‘SIMLIGI ASOSIDA BIOLOGIK FAOL
QO‘SHIMCHALAR OLIH VA TARKIBIDAGI TABIIY
BIRIKMALARNING BIOLOGIK FAOLLIGI**

02.00.10- Bioorganik kimyo

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

G‘aybullayeva Ozoda Obid qizi

Inula helenium L. o‘simligi asosida biologik faol qo‘shimchalar olish
va tarkibidagi tabiiy birikmalarning biologik faolligi..... 3

G‘aybullayeva Ozoda Obid qizi

Получение биологически активной добавки на основе растения
Inula helenium L. и биологическая активность содержащихся в
ней природных соединений..... 21

G‘aybullayeva Ozoda Obid qizi

Preparation of biologically active supplements based on *Inula*
helenium L. plant and biological activity of natural compounds
contained in it..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/05.06.2020.K/B.91.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

G‘AYBULLAYEVA OZODA OBID QIZI

***INULA HELENIMUM L.* O‘SIMLIGI ASOSIDA BIOLOGIK FAOL
QO‘SHIMCHALAR OLIH VA TARKIBIDAGI TABIIY
BIRIKMALARNING BIOLOGIK FAOLLIGI**

02.00.10- Biorganik kimyo

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/B1076 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) uzicps.uz va «Ziyonet» axborot–ta’lim portalida (guldu.uz/ru/) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Islomov Akmal Xushvaqovich
kimyo fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Ibragimov Fozil Axmedovich
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Isayev Yusup Tojimamatovich
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Guliston Davlat Universiteti huzuridagi DSc.03/05.06.2020.K/B.91.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «__» _____t soat __dagi majlisda bo‘lib o‘tadi (Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel. (99867) 225-42-75, faks (67) 225-40-42) email: glsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Guliston Davlat Universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel. (99867) 225-42-75, faks (67) 225-40-42) email: zafar@mail.ru.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «__» _____da tarqatildi.
(2025 yil «__» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

H.H. Qo‘shiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi., b.f.d., professor

T.A. Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.n., dotsent

N.R.Xashimova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., k.i.x.

Kirish (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda dorivor o‘simliklarni yetishtirish, dastlabki xomashyo bazalarini yaratish va ularning kimyoviy tarkibini o‘rganish, biologik faol birikmalarni ajratib olish hamda o‘simliklar asosida yangi turdagi import o‘rnini bosuvchi arzon va sifatli biologik faol qo‘shimchalar va dori vositalarini yaratish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda tibbiyot amaliyotida qo‘llaniladigan dori vositalarining ko‘pgina qismini tabiiy manbalardan olish yo‘lga qo‘yilgan. Tabiiy manbalardan olinadigan dorivor vositalar olinish samaradorligi, organizm tomonidan oson o‘zlashtirilishi, salbiy ta’sirlari kamligi, biologik mosligi hamda o‘ziga xos ta’sirlari tufayli sun’iy yaratilgan dorivor vositalardan tubdan farq qiladi. Ayniqsa antioksidant, antibakterial va zamburug‘larga hamda nafas yo‘llarining yallig‘lanish kasalliklariga qarshi ta’sirga ega kimyoviy birikmalarga farmatsevtika sanoatida talab yuqoriligi sababdan biologik faol moddalarga boy o‘simlik turlarini aniqlash, ulardan biologik faol moddalar ajratib olish va farmatsevtika sanoatiga tavsiya etish biologiya va kimyo sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda *Inula helenium L.* o‘simligi ildizpoya va ildizlari asosida tayyorlangan tabiiy biologik faol qo‘shimchalar (BFQ) olish hamda sifatini yaxshilash, ularning kimyoviy tarkibini va biologik faolligini zamonaviy tadqiqot usullari yordamida tahlil qilish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada *Inula helenium L.* o‘simligi ildizpoya va ildizlari asosida antiseptik, yallig‘lanishga qarshi va organizmdan gijjalarni haydash xususiyatiga ega bo‘lgan BFQ lar yaratish hamda ularni antioksidant xususiyatlarini va biologik faolligini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilash sohasida, shuningdek, mahalliy xomashyo manbaalari asosida import o‘rnini bosadigan milliy mahsulotlar olish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha muhim natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish” bo‘yicha vazifalar belgilab qo‘yilgan. Shu maqsadga erishishda mahalliy xomashyolardan foydalanib, birlamchi xomashyolarni chuqur qayta ishlash orqali yangi import o‘rnini bosuvchi BFQ lar yaratish katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi¹ PF-60-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12- avgustdagi PQ-4805-sonli “Kimyo” va “biologiya” yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari II, III, VI. “Kimyo, biologiya va qishloq xo‘jaligi” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq ravishda amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida *Inula helenium* oilasiga kiruvchi o‘simliklar tarkibini o‘rganish, biologik faol moddalarni ajratib olish hamda amaliyotga tadbiiq etish bo‘yicha izlanishlar jadal olib borilmoqda. Xususan, xorijlik olimlar - Khil S., Bindels L.B., Pachikyan B.D. va boshqalar tomonidan *Inula helenium L.* o‘simlik *inulinga* boy bo‘lib sog‘lom odamlarning ichak salomatligi va ovqatlanish xatti-harakatlariga ta‘sirini va Cai Y, Gao K, Peng B, Xu Z, Peng J, Li J va boshqalar: saraton kasalligini davolash uchun tabiiy *Inula* o‘simlik ekstraktini potensial terapevtik vosita sifatida o‘rgangan. V. V. Sergeyeva, I. Yu. Chernogorets *Inula helenium* qandli diabet, nafas olish yo‘llari, ovqat hazm qilish organlari kasalliklarini davolashda, bronxit, yo‘talish, gastrit, jigar va o‘t yo‘llari kasalliklarini davolashda keng ishlatiladi deb tavsiya qilgan. D. Polina izomerli seskviterpenli laktonlar: alantolakton, izoalantolakton va diprofillin *Inula helenium L.* ildizining tarkibidagi efir moylari kuchli antistafilokokk ta‘sirga ega moddalar ekanligi va ularning farmakologik xususiyatlari hamda biologik faolliklari o‘rganilgan.

Respublikamizda keng tarqalgan dorivor o‘simliklar tarkibidan biologik faol moddalarni ajratib olish hamda ularni farmatsevtika va tabobatga tadbiiq qilish yo‘nalishida akademiklar O.S.Sodiqov, S.Yu.Yunusov, Yo.X.To‘raqulov, S.T.Soatov, A.P.Ibroximov, Sh.I.Salixov, A.S.Turayev, professor I.R.Asqarov, professor H.H.Qo‘shiyev kabi olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy ishlar olib borilgan. Bundan tashqari, *Inula helenium L.* o‘simligini tarkibi, biologik ahamiyati hamda tibbiyotda balg‘am ko‘chiruvchi dori sifatida me‘da va ichak kasalliklarida qo‘llanilishini H.X.Xolmatov, Z.H.Habibovlar o‘rgangan.va A.Akmuradov *Inula helenium L.* o‘simligi ildiz poyasi sil, oshqozon-ichak kasalliklarida, diuretik va antigelmantik vosita sifatida ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida o‘rganilgan. *Inula helenium L.* o‘simligini kimyoviy tarkibi va biologik faolliklari o‘rganilganligiga qaramasdan, hozirgi kungacha *Inula helenium L.* o‘simligini dala sharoitda ko‘chat qilib madaniylashtirish va yovvoyisi bilan taqqoslash yetarlicha o‘rganilmagan va madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* o‘simligi asosida BFQ lar olinmagan hamda o‘tkir zaharliligini va antioksidantlik xususiyati va immunitetga hamda yallig‘lanishga ta‘siri o‘rganilmagan.

Mazkur dissertatsiya ishida *Inula helenium L.* o‘simligini dala sharoitda ko‘chat qilib madaniylashtirish va ildizini o‘tkir zaharliligi, antioksidantlik xususiyati va immunitetga hamda yallig‘lanishga ta‘sirini o‘rganish hamda *Inula helenium L.* madaniylashtirilgan o‘simligi ildizi asosida BFQ lar ishlab chiqarish yoritilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassalarining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “*Inula helenium L.* o'simligi asosida biologik faol qo'shimchalar olish va tarkibidagi tabiiy birikmalarning biologik faolligi” mavzusidagi fundamental izlanishlari doirasida hamda ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* dorivor o'simligini ildizini tarkibidagi vitaminlar, flavonoidlar miqdorini va o'simlik ildizi moyli ekstraktining biologik faolligini aniqlash hamda ular asosida BFQ ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Inula helenium L. o'simligining urug'idan madaniylashtirishning maqbul sharoitlarini aniqlash va dala sharoitida 0,5 gektar yer maydonida ikki xil usulda madaniylashtirish, birinchisi urug'ni to'g'ridan to'g'ri dalaga ekish hamda ikkinchi usul ko'chat qilib (tuvaklarga ekib undirib) dala sharoitda ekish ishlari 4 yil moboynida yetishtirish, hamda o'simlik ildizining qancha miqdorda chiqishini aniqlash;

madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* o'simligi 1, 2, 3 va 4 yillarda yetishtirilgan ildizi xomashyosi tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar va flavonoidlar hosil (sintez) bo'lishini, hamda miqdorini aniqlash;

madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* o'simligining 4 yillik ko'chati ildizining tarkibidagi mineral elementlari miqdorini va og'ir metallar Pb, Cd, Hg va As miqdorlarini Sanpin tomonidan ruxsat etilgan miqdordan ko'p bulmasligini “Rentgenoflyuretsentli” spektrometriya qurilmasida aniqlash;

madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* o'simligi ildizlari asosida biologik faol qo'shimchalar ishlab chiqish va ularning o'tkir zaharlilikini, immunotrop ta'siri va yallig'lanishga qarshi biologik faolligini aniqlash;

madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* ildizini kukunini va ekstraktini *in vitro* sharoitida antioksidantlik faolligini aniqlash;

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Navoiy viloyati Xatirchi tumanida madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* o'simligi ildizi va uning asosida yaratilgan BFQ lar olingan.

Tadqiqotning predmeti *Inula helenium L.* o'simligini urug'idan dala sharoitda ko'chat qilib madaniylashtirish, o'simlik ildizi tarkibidagi mineral elementlar, suvda eruvchi vitaminlar, flavonoidlar miqdorini aniqlash, antioksidantlik xususiyati va *Inula helenium L.* o'simligi ildizi asosida yaratilgan BFQ larini o'tkir zaharlilikini hamda immunitetga ta'sirini va yallig'lanishga qarshi biologik faolligini o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida *Inula helenium L.* madaniylashtirilgan o'simligini ildizini suvda eruvchi vitaminlari, flavonoidlarni miqdorini aniqlashda fizik-kimyoviy tahlil va yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YSSX) usuli yordamida aniqlandi. *Inula helenium L.* o'simligi ildizi asosida olingan BFQ larini o'tkir zaharliliği (LD₅₀)ni hamda immunitetga va yallig'lanishga qarshi biologik faolligini biokimyoviy, farmakologik, immunologik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Inula helenium L. o'simligini xona sharoitida ko'chat qilib, keyin dala sharoitida ko'paytirilgan va hosildorligi yuqori bo'lishi aniqlangan;

madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* o'simligini bir yillik etishtirilgan ildizi tarkibida B₉ vitamini va digidrokversitin, rutin flavonoidlari borligi namoyon bo'lgan, 2, 3 va 4 yillik etishtirilgan ildiz tarkibida C, B₁, B₂, B₆, B₉ vitaminlar hamda, digidrokversitin, lyutionin, rutin, kversitin, salidrozd kabi flavonoidlar mavjudligi aniqlangan;

ilk bor madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* o'simligining 4 yillik ko'chati ildizining tarkibida suvda eruvchi vitaminlar miqdori C (0,249851 mg), B₁ (0,031896 mg), B₂ (0,950895mg), B₆ (0,621359 mg), B₉ (1,868852 mg) hamda digidrokversitin (3,25 mg), lyutionin (0,28 mg), rutin (7,28 mg), kversitin (0,15 mg), salidrozd (2,43 mg) flavonoidlarning miqdori aniqlangan;

ilk bor madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* o'simligining ildizi tarkibidagi 56 ta, jumladan alyuminiy (0.8455 mg/kg), kremniy (1.153 mg/kg), temir (0.1373 mg/kg), kalsiy (0,5835 mg/kg), kaliy (1.549 mg/kg), oltingugurt (0.2042 mg/kg) va x.z. elementlar miqdorida borligi aniqlangan, Og'ir metallardan Pb, Cd, Hg va As ni Sanpin tomonidan ruxsat etilgan miqdordan ko'p emasligi va keltirilgan me'yorlarga mos kelishi isbotlangan;

ilk bor madaniylashtirilgan *Inula helenium L.*(Qora andiz) bilan *Glycyrrhiza glabra L* (*shirinmiya*) o'simliklarini ildizlarini 2:1 nisbatdagi yig'masi (BIOINULA TEA) va *Inula helenium L.* ildizining moyli ekstrakti (INULA OIL) va uning 0,5 grammlari yumshoq jelatinali kapsulalari (INULA KAPSULA) shaklida biologik faol qo'shimchalar ishlab chiqilgan hamda ularni V zaharsiz birikmalar sinfiga kirishi, immunotrop ta'siri va yallig'lanishga qarshi biologik faolligi aniqlangan;

ilk bor madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* o'simligini ildizini kukuni va ekstrakti *in vitro* sharoitida 5 xil konsentratsiyada (100, 250, 500, 750, 1000 mg/ml) antioksidantlik faolligi o'simlik ildizining kukunida 36.94 % ni va ekstraktda 35.41 % tashkil etishi isbotlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* o'simligi ildizining tarkibidagi mineral elementlari, suvda eruvchi vitaminlar, flavonoidlarning miqdori va VI zaharsiz birikmalar sinfiga kirishi aniqlangan hamda antioksidantlik xususiyati samarali natija berishi isbotlangan;

madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* o'simligi ildizi asosida BFQ lari yaratilgan va V zaharsiz birikmalar sinfiga kirishi aniqlangan hamda immunitetga va yallig'lanishga qarshi faollik namoyon etishi aniqlangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Tadqiqot ishida zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari (YaMR, YSSX, UB, IQ, Raman spektroskopiyalari, SEM, EDX, XRD, DLS, AKM, TGA, ICP-MS, rentgenfluouessent, adsorbsiya izotermalarini o'lchashning vaakumli qurilmasi) yordamida tahlil qilinganligi va biologik, biokimyoviy tadqiqot usullaridan hamda olingan natijalar Respublika va xalqaro miqyosidagi bir qator ilmiy amaliy konferensiyalardagi taqdimoti, retsenziyalanadigan jurnallarda chop etilishi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* o‘simligi ildizining tarkibidagi mineral elementlari, suvda eruvchi vitaminlar, flavonoidlarning miqdori va antioksidantlik xususiyati hamda o‘simlik ildizi asosida BFQlar yaratilib V zaharsiz birikmalar sinfiga kirishi aniqlangan hamda immunotrop ta’siri va yallig‘lanishga qarshi faolligini biokimyoviy, farmakologik, immunologik usullar yordamida tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning natijalarining amaliy ahamiyati madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* o‘simligi ildizi asosida olingan kungaboqar moyidagi ekstrakti “INULA OIL” va 0,5 grammlı yumshoq jelatinalı kapsulasi “INULA KAPSULA” hamda *Inula helenium L.* bilan *Glycyrrhiza glabra L* o‘simliklarini ildizi ekstraktlarining 2:1 nisbatdagi yig‘masi “BIOINULA TEA” BFQ lari kelajakda “immunitetni rag‘batlantiruvchi va yallig‘lanishga qarshi” proflaktika uchun qo‘llaniladigan ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* o‘simligi ildizi asosida olingan yangi tarkibli immunitetni rag‘batlantiruvchi va yallig‘lanishga qarshi BFQ lar olish hamda ularni qo‘llanilishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“*Inula helenium L.* madaniylashtirilgan o‘simligi ildizini kungaboqar moyidagi ekstrakti” (INULA OIL) uchun tashkilot standarti O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati tomonidan tasdiqlangan (Ts 03535693-50:2023-sonli). Natijada, “immunitetni rag‘batlantiruvchi va yallig‘lanishga qarshi” proflaktika uchun qo‘llaniladigan BFQ lar olish imkonini bergan;

madaniylashtirilgan *Inula helenium L* o‘simligi ildizi asosida tayyorlangan “BIOINULA TEA” va “INULA OIL” hamda “INULA KAPSULA” tabiiy biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchalari sinflanib, ularga tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklatura bo‘yicha 2106909808 xalqaro tovar kod raqami ishlab chiqildi hamda davlat bojxona qo‘mitasi amaliyotiga joriy qilindi. (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining 2025 yil 1 fevraldagi 17/05-25-0145-son ma’lumotnomasi, O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekekspertiza Aksiyadorlik jamiyatining 2024 yil 28 noyabrdagi 17 3808-son xulosasi). Natijada, *Inula helenium L.* madaniylashtirilgan o‘simligi ildizi asosida tayyorlangan biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchalarini kimyoviy tarkibi asosida sinflash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya bo‘yicha maqolalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 9 ta maqola, shundan 4 ta respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Web of Sciene ma’lumotlar bazasiga kiruvchi jurnallarida 4 ta maqola va Scopus bazasidagi jurnalda 1 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyligi, maqsad va vazifalari asoslab berilgan, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini joriy qilish, nashr qilingan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «*Inula helenium L. o'simliklarining turlari, kimyoviy tarkibi, tuzilishi, biologik faolligi*» deb nomlangan **birinchi bobida** *Inula* turkumiga kiruvchi o'simliklarning biologiyasi va kimyosi, *Inula helenium L.* o'simligi tavsifi, dorivorlik xususiyatlari to'g'risida umumiy tushunchalar hamda Dorivor o'simliklarning kimyoviy tarkibi, asosiy ta'sir etuvchi biologik faol moddalari va shifobaxsh o'simliklar bilan davolash usuli (fitoterapiya), O'simliklarni antioksidantlik xususiyatlari va O'simliklar tarkibidagi mineral elementlar, vitaminlar, uglevodlar, aminokislotalar, vitaminlarning ahamiyati, *Glycyrrhiza glabra L* o'simligi va biologik xususiyatlari haqida ma'lumotlar va birinchi bob uchun xulosa keltirilgan.

Dissertatsiyaning «*Inula helenium L. o'simligini madaniylashtirish va mineral elementlari, uglevodlar, flavonoidlar va vitaminlar miqdorini aniqlash va Inula helenium L o'simligi ildizi asosida biologik faol qo'shimchalar olish*» deb nomlangan **ikkinchi bobida** *Inula helenium L.* o'simligini urug'idan dala sharoitda ko'chat qilib madaniylashtirish va ildizi tarkibidagi mineral elementlari, uglevodlar, flavonoidlar va vitaminlar, miqdorini aniqlash hamda o'simlik ildizini quruq ekstraktini olish. *Inula helenium L.* bilan *Glycyrrhiza glabra* o'simliklarini ildizlarini 2:1 nisbatdagi quruq ekstrakti yig'masi (BIOINULA TEA) va *Inula helenium L.* o'simligi ildizining moyli ekstrakti (INULA OIL) va uning 0,5 grammligini yumshoq kapsulasi (INULA KAPSULA) tayyor mahsulotlarini olinishi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan va ikkinchi bob xulosasi keltirilgan.

Inula helenium L. o'simligini madaniylashtirish ishlari Navoiy viloyati Xatirchi tumanida "Ubaydullo ota uzumzori" fermer xo'jaligida *Inula helenium L.* o'simligini urug'idan *in vitro* usulida madaniylashtirishning maqbul sharoitlari hamda dala sharoitda 0,5 gektar yer maydonida madaniylashtirish ikki xil usulda: birinchisi urug'ni to'g'ridan to'g'ri dalaga ekish hamda ikkinchi usul ko'chat qilib (tuvaklarga ekib undirib) dala sharoitda ekish ishlari olib borildi. Ekishdan oldin urug'ni kaliy permanganat va mis sulfatning 0.002 % li eritmaları aralashmalarida 12 soatga bo'ktirib keyin Polimikrovit stimulyatorida 24 soatga buktirib tuproq:qum:torfli go'ng nisbatlarini 2:1:1 (massa jixatidan) aralashmasida ekildi. Polimikrovit stimulyatorini tarkibi: polimerlar, to'yinmagan yog' kislotalari, mikroelementlar (Mn^{++} , I, Cu^{++}), va boshqalar.

Inula helenium L. o‘simligini xona va dala sharoitida urug‘idan ekilganda o‘simliklarni o‘shishi va rivojlanishini kuzatish ishlari olib borilganda, urug‘ni to‘g‘ridan to‘g‘ri dala sharoitida ekilgandagiga nisbatan xona sharoitida ko‘chat qilib, dala sharoitida ekilgani yuqori bo‘lishi aniqlandi. Madaniylashtirilgan *Inula helenium* L. o‘simligining o‘shishi va rivojlanishi o‘tkazilgan tajribalarning 1, 2, 3 va 4-yillarda ekilgan 0,5 gektar yer maydonlarida urug‘dan ko‘chat qilib yetishtirilganda birinchi yili 420 kg, ikkinchi yili 510 kg, uchinchi yili 670 kg, va to‘rtinchi yili 850 kg dan *Inula helenium* L. o‘simligi ildizi yig‘ib olindi. Madaniylashtirilgan *Inula helenium* L. o‘simligi 1, 2, 3 va 4- yillardagi ildizi xomashyosi tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar va flavonoidlar miqdori YSSX qurilmasida o‘rganilgan.



1-rasm. Madaniylashtirilgan *Inula helenium* L. o‘simligi ildizining vitaminlari (a) va flavonoidlari (b) xromatogrammalari.

Madaniylashtirilgan *Inula helenium* L. o‘simligining 4 yillik ildizining 1 gr namunasi tarkibida C (0,249851 mg), B₁ (0,031896 mg), B₂ (0,950895mg), B₆ (0,621359 mg), B₉ (1,868852 mg) vitaminlar hamda digidrokversitin (3,25 mg), lyutionin (0,28 mg), rutin (7,28 mg), kversitin (0,15 mg), salidrozd (2,43 mg) kabi flavonoidlar mavjudligi aniqlandi (1-rasm, 1-jadval).

1-jadval

Madaniylashtirilgan *Inula helenium* L. o‘simligini ildizi tarkibidagi suvda eruvchi vitaminlar va flavonoidlar miqdorini YuSSX aniqlash natijalari

	No Vitaminlar va flavonoidlar nomi	Bir yillik ildizi	Ikki yillik ildizi	Uch yillik ildizi	To‘rt yillik ildizi
Vitaminlar, mg	B ₁	-yo‘q	0,010010	0,013751	0,031896
	B ₂	-yo‘q	0,101100	0,113142	0,950895
	B ₆	-yo‘q	0,116582	0,213522	0,621359
	B ₉	1,131421	1,228261	1,354321	1,868852
	C	-yo‘q	0,010110	0,131621	0,249851
Flavonoidlar, mg	Lyutionin	-yo‘q	0,10	0,12	0,28
	Digidrokversitin	1,13	1,88	2,62	3,25
	Kversitin	-yo‘q	0,01	0,09	0,15
	Senerozid	-yo‘q	1,62	2,10	2,43
	Rutin	4,11	5,52	6,31	7,28


Inula helenium L. o‘simligini urug‘idan madaniylashtirishning maqbul sharoitlari aniqlangan hamda dala sharoitida 0,5 gektar yer maydonida yetishtirilgan va o‘simlik ildizining kimyoviy tarkibi YSSX usulida aniqlash natijasida Bir yillik ildizining tarkibida B₉ vitamini borligi hamda qolgan 2, 3 va

4 yillik ildizining tarkibida C, B₁, B₂, B₆, B₉ vitaminlar borligi hamda flavonoidlar Bir yillik ildizining tarkibida digidrokversitin, rutin borligi va qolgan 2, 3 va 4 yillik ildizining tarkibida digidrokversitin, lyutionin, rutin, kversitin, salidrozd kabi flavonoidlar mavjudligi aniqlandi.

Madaniylashtirilgan *Inula helenium* L. o'simligi ildizini quruq ekstraktni olish va texnologiyasini optimal sharoitlarini aniqlash ishlari O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi Institutning tajriba ishlab chiqarish korxonasi qoshida ishga tushirilgan GMP sharoitiga moslashgan ilmiy-texnologik markazdagi soatiga 200 l eritmani quritish imkonini beruvchi «ZPG 150» (XXR) rusumli purkab quritish ekstraktorida ekstraksiya olib borildi. Purkab quritish moslamasida issiq havo oqimini kirishi o'rtacha 170 °C, chiqishi 80 °C, qilib belgilandi. Olingan mahsulot miqdori 13-15 % dan kam bo'lmagan quruq ekstrakti olindi.

Madaniylashtirilgan *Inula helenium* L. o'simligining ildizi tarkibidagi mineral elementlar miqdorini aniqlash "Rentgenoflyuretsentli" spektrometriya usulida Spectro Xepos 111 (AQSh) qurilmasida *Inula helenium* L. o'simligi ildizi tarkibida 56 ta elementlar, jumladan alyuminiy (0.8455 mg/kg), kremniy (1.153 mg/kg), temir (0.1373 mg/kg), kalsiy (0,5835 mg/kg), kaliy (1.549 mg/kg), oltingugurt (0.2042 mg/kg) elementlari borligi, og'ir metallardan Pb, Cd, Hg va As miqdorlari Sanpin tomonidan ruxsat etilgan miqdordan ko'p emasligi aniqlandi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda, *Inula helenium* L. o'simligi ildizi tarkibidagi Pb; Cd; Hg va As kabi zaharli og'ir metall ionlarining miqdori tegishlicha Pb-1,9; Cd-1,6; Hg-0,1 va As-1,1 mg/kg dan oshmasligi, bu esa keltirilgan me'yorlarga mos kelishi aniqlandi.


Madaniylashtirilgan *Inula helenium* L. o'simligi ildizidan adabiyotlarda ma'lum bo'lgan usul asosida rutin ajratib, uni kislotali gidroliz qilish orqali kversitin olindi. Buning uchun to'rt yilligi madaniylashtirilgan *Inula helenium* L. o'simligi ildizi 40-45°C da quritildi va maydalab, 1:15 nisbatda suv bilan 2,5-3 soat mobaynida 100°C haroratda ekstraksiya qilindi. Suvli ekstrakt filtrlanib, sovutkichda 24 soatga qoldirildi. Cho'kmaga tushgan texnik rutin filtrlab olindi va etanolda qayta kristallab tozalandi (unum 10-12%). Rutin IQ-spektrida (sm⁻¹) C=O (1659); CH₃, CH₂ (2950) OH (3600) guruhlarga oid yutilish sohalari namoyon bo'ladi. Rutin sulfat kislotaga bilan gidroliz qilish orqali texnik kversitin olindi va etanolda qayta kristallab, toza kversitin olindi. Kversitinning quruq xomashyoga nisbatan o'rtacha unumi 5,1 % ni tashkil qildi. IQ-spektrida (sm⁻¹) C=O (1666), CH₃, CH₂ (2835), OH (3395) ga xos yutilish chiziqlari kuzatildi. Kversitinning ¹H YaMR spektrida (600 MGs, Py-d₆, δ, m.u., J/Gs): 6.11 d (J=2.0 H-6), 6.32, d (J=2.0, H-8), 7.67 d (J=2.2, H-2'), 6.83 d (J=8.5, H-5'), 7.51 dd (J=8.5, 2.2, H-6'), 12.37 s (C-5 OH), 10.42 s (C-7 OH), 9.19 s (C-4' OH), 9.03 s (C-3' OH), 8.95 s (C-3 OH) uch turdagi protonlarning signallarini ko'rish mumkin: jumladan, aromatik halqa protonlari va gidroksil guruh protonlari hamda erituvchi protonlari signallari. Flavonolning asosiy tuzilishi benzopironning C-3-holatida gidroksil guruhi joylashgan bo'lib, uni 3-gidroksiflavonga aylantiradi. Kversitinning ¹H YaMR spektri 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Kversitinning ^1H YaMR spektri.

Benzopironidagi ikkita aromatik proton, C-6 va C-8 da, mos ravishda 6,11 m.u. va 6,32 m.u. da dublet ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. C-2' (7.67 m.u) va C 5' (6.83 m.u) protonlari mos ravishda dublet shaklda, C-6' protonlari esa 7.51 m.u.da ($J=8.5, 2.2$) dublet-dublet shaklda namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari molekuladagi OH guruhlarida joylashgan proton signalari signallari singlet shaklda kuchsiz maydonda (12.37 m.u. (C-5 OH), 10.42 m.u. (C-7 OH), 9.19 m.u. (C-4' OH), 9.03 m.u. (C-3' OH), 8.95 m.u. (C-3 OH) kuzatilgan. 5-rasmda keltirilgan.

Kversitinning ^{13}C YaMR spektrida (150 MGs, Py-d_5 , δ , m.u.) quyidagi signallar kuzatildi: 146.43 (C-2) 135.62 (C-3), 175.60 (C-4), 160.76 (C-5), 97.95 (C-6), 163.72 (C-7), 92.99 (C-8), 156.06 (C-9), 102.93 (C-10), 121.96 (C-1'), 114.94 (C-2'), 144.72(C-3'), 147.37(C-4'), 115.21(C-5'), 119.64(C-6').



3-rasm. Kversitinning ^{13}C YaMR spektri.

Ilk bor madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* o‘simligi va *Glycyrrhiza glabra L.* o‘simligi ildizlarini 2:1 nisbatdagi yig‘masi asosida BFQ si ishlab chiqarildi va “BIOINULA TEA” deb nomlandi. Uning qutisida 2 grammlari paketchalarda 20 donadan qadoqlangan tibbiyotda immunitetni rag‘batlantiruvchi ta’sirga va yallig‘lanishga qarshi faolikka ega bo‘lgan BFQ olindi (4-rasm)

Ilk bor madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* o‘simligini ildizdan moylar asosida moyli ekstrakti olindi. Uni olish uchun madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* o‘simligi ildizini maydalab, 96% li etanol bilan ekstraksiya qilindi va uning ustiga kungaboqar moyi solib, suv hammomida, teskari sovutgich yordamida ekstraksiya qilindi, erituvchisi (etanol) haydab ajratib olindi. O‘simlikning ekstrakti filtrlab olinib, sovutkichda 24 soatga qoldirildi va yana filtrlab, och qizil rangdagi madaniylashtirilgan *Inula helenium L.* o‘simligi ildizining moyli ekstrakti olindi va “INULA OIL” deb nomlandi. “INULA OIL” moyi - o‘ziga xos hidli, och qizil rangli suyuqlik. *Inula helenium L.* (qora andiz) o‘simligi ildizini kungaboqar moyidagi ekstrakti 100 ml li flakonlarda ishlab chiqariladi (4-rasm).


Ilk bor *Inula helenium L.* o‘simligini ildizini moyli ekstraktini 0,5 grammdagi yumshoq jelatinali kapsulasi “Shanaz” MChJ korxonasida ishlab chiqarildi va “INULA KAPSULA” deb nomlandi. Bitta “INULA KAPSULA” tarkibida *Inula helenium L.* o‘simligi ildizining moyli ekstraktida efir moyi 0,0400 g va yordamchi modda: kungaboqar moyi 0,5000 g gacha. Aylanma-matritsa usulidan foydalangan holda efir moyi bilan yumshoq jelatinli kapsulani olish uchun jelatinli massaning maqbul tarkibini tanlashda, umumiy maqsadga muvofiqlik funksiyasidan foydalangan holda texnologik xarakteristikalar uchun asosiy belgilar tuzildi va jelatinli massa namunasi tayyorlandi. Aylanma matritsa usulidan foydalangan holda jelatinli massani kapsulalash uchun baholash mezonlariga ko‘ra, maqbul tarkib tanlangan: jelatin - 44% ± 1, glitsirin-22% ± 1, tozalangan suv - 34% ± 1. INULA KAPSULA si bitta flakonida 0,5 grammdan 30 donadan kapsula holatida qadoqlangan (4-rasm):



4-rasm. *Inula helenium L.* (Qora andiz) bilan *Glycyrrhiza glabra L.* (shirinmiya) o‘simliklarini ildizlarini 2:1 nisbatdagi yig‘masi (BIOINULA TEA) va *Inula helenium L.* madaniylashtirilgan o‘simligi ildizining moyli ekstrakti (INULA OIL) va uning 0,5 grammligi yumshoq jelatinali kapsulasi (INULA KAPSULA) tayyor BFQ ko‘rinishi.

Dissertatsiyaning «”BIOINULA TEA” va “INULA OIL” hamda “INULA KAPSULA” BFQ larini o‘tkir zaharliligini, iminotrop hamda yallig‘lanishga qarshi faolligini aniqlash» deb nomlangan uchinchi bobida *Inula helenium L.* o‘simligi ildizining kukunini va ekstraktini *in vitro* sharoitida antioksidantlik faolligini aniqlash hamda *Inula helenium L.* o‘simligi ildizi asosida olingan immunitetni rag‘batlantiruvchi ta’sirga ega BFQ larini o‘tkir zaharliligini hamda tibbiyotda immunitetni rag‘batlantiruvchi ta’sirga va yallig‘lanishga qarshi faolligini o‘rganish natijalari haqidagi ma’lumotlar yoritilgan. Ushbu tadqiqot ishlari O‘zR FA akademik O.S.Sodiqov nomidagi bioorganik kimyo instituti Farmakologiya va BFM skriningi laboratoriyasi xodimlari (kat.i.x., b.f.n. N.A.Tagayaliyeva, kat.i.x., PhD. D.G.Abdugafurova., PhD. Baratov Q.R., PhD. L.U.Mahmudov) bilan hamkorlikda bajarilgan va uchinchi bob xulosasi keltirilgan (dalolatnomalar ilova qilingan).

***Inula helenium L.* (qora andiz) o‘simligini ildizini kukunini va ekstraktini *in vitro* sharoitida antioksidantlik faolligini aniqlash ishlari Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘z MU huzuridagi Biofizika va biokimyo instituti “Metabolomika” laboratoriyasi k.i.h., PhD M.A.Mustafaqulov bilan hamkorlikda olib borildi. *Inula helenium L.* o‘simligini ildizini kukunini va ekstraktini *in vitro* sharoitida 4 xil namunalar asosida 5 xil konsentratsiyada (100, 250, 500, 750, 1000 mg/ml) antioksidantlik faolligi spektrofotometrik usulda kversetin va gliklazid bilan qiyosiy o‘rganilganda, gliklaziddan yuqori va kversetin darajasida antioksidantlik faolligini namoyon qilishi ko‘rsatildi. *Inula helenium L.* o‘simligi ildizining kukunida (a) 36.94 % ni va (b) ekstraktida 35.41 % faollikni tashkil etishi aniqlandi (5-rasm).**



5-rasm. *Inula helenium L.* o‘simligini ildizini kukuni (a) va ekstraktini (b) antioksidantlik faolligini aniqlash.

***Inula helenium L.* o‘simligi ildizining ekstrakti kukunini hayvonlarda o‘tkir zaharliligini o‘rganish.** *Inula helenium L.* o‘simligini ildizi ekstrakti kukuni sichqonlar va kalamushlarga 2000 va 5000 mg/kg dozada oshqozon orqali kiritilganida o‘tkir zaharlash ta’siri kuzatilmadi. Faqatgina 5000 mg/kg dozada kiritilgandan 5-10 daqiqa o‘tgach hayvonlar nafas olishida tezlashish, bitta joyda to‘planib olish va ko‘zlarning qisilishi, torayishi holatlari kuzatildi, bu jarayon 25-30 daqiqa davom etdi va me’yoriy holatga qayta boshladi, ozuqa va suv ichishda davom etdi. Butun tajriba davomida kuzatilganida yuqorida keltirilgan dozalarda hayvonlar o‘limi qayd etilmadi (5/0). Tajriba guruhlaridagi hayvonlar nazorat guruhi bilan solishtirilganda sichqon va kalamushlarning ikkala dozasi ham tana massasida pasayish kuzatilmadi. *Inula helenium L.* o‘simligini ildizini ekstrakti kukuni bir marotaba sichqonlar va kalamushlar oshqozoniga kiritilgandagi o‘rtacha o‘lim dozasi (LD₅₀) >5000mg/kg dan yuqori ekanligi aniqlanib VI - zaharsiz birikmalar sinfiga mansub ekanligi aniqlandi.

“BIOINULA TEA” va “INULA OIL” hamda “INULA KAPSULA” BFQ larini o‘tkir zaharliligini o‘rganishda Tajribalarda hayvonlarga (sichqonlarga) 5000, mg/kg dozada. “BIOINULA TEA” va “INULA OIL” hamda “INULA KAPSULA” BFQ larini og‘iz orqali yuborildi. 10-15 daqiqadan so‘ng 2000 mg/kg modda yuborilganda taxikardiya, yurak urushi sonining ko‘payishi, hayvonlarning guruhlanishi kuzatildi, hayvonlarning bu belgilari 20 daqiqadan so‘ng yo‘qoldi va sichqonlar faollashdi. Hayvonlarni 14 kun davomida kuzatishda o‘lim holatlari qayd etilmadi. BFQ larini o‘rganish davomida olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

“BIOINULA TEA” va “INULA OIL” hamda “INULA KAPSULA” BFQ larini o‘tkir zaharliligini urganish ko‘rsatkichlari, (M±m; n=6)

Sinov namunasining nomi	Hayvon turi, jinsi	Doza mg/kg, ml	Tajriba guruhidagi hayvonlar soni/ o‘lgan hayvonlar soni (dona)	Hayvonlarning o‘rtacha vazni, (g)			LD ₅₀ (-m+m mg/kg)
				1-kun	7-kun	14-kun	
“INULA OIL”	Erkak sichqonlar	5000	5/0	21±0,8	23±0,8	26±0,9	> 5000 V-sinf
“INULA KAPSULA”		5000	5/0	21±0,7	23±0,9	26±0,7	> 5000 V-sinf
“BIOINULA TEA”		5000	5/0	20±0,8	22±0,9	25±0,9	>5000 VI-sinf
Nazorat (suv)		0,5 ml	5/0	20±0,7	23±0,8	26±0,9	-

“BIOINULA TEA” va “INULA OIL” hamda “INULA KAPSULA” BFQ lari V zaharsiz birikmalar sinfiga kirishi aniqlandi.

“BIOINULA TEA” va “INULA OIL” hamda “INULA KAPSULA” BFQ larini immunotrop faolligini aniqlashda biologik usullari bilan sichqonlarda *in vivo* sharoitida timus, taloq, qo‘ltiq osti limfa tugunlari kabi immunitet organlarining yadroli hujayralar (YaH), shuningdek, qorin bo‘shlig‘i suyuqligidagi makrofaglar sonini ko‘paytirish xossasiga ko‘ra aniqlandi. BFQ larni biologik faolligi tanasining o‘rtacha vazni 24 grammni tashkil etgan sichqonlarda tekshirildi. Sog‘lom hayvonlarga og‘iz orqali izotonik eritma - 0,9% NaCl, tajriba guruhlaridagi hayvonlarga “INULA OIL” va “INULA KAPSULA” BFQ sining 200 mg/ kg dozada bir marta suvdagi 1% eritma shaklida kiritildi.

Moddalarning faolligi qiyoslash preparati sifatida olingan “IMMUNAL” (1 tabletka faol moddada: (*Echinacea purpurea* (L.) Moench) quritilgan sharbati - 60 mg, Sandoz, Sloveniya tomonidan ishlab chiqarilgan) va o‘simlik mahsulotlari “QIZIL MAY” - Avliyo Ioann achchiq o‘ti - 12 g., qichitqi o‘ti barglari - 2 g, atirgul barglari - 1 g, qizilmiya ildizi - 1,6 g, o‘rmalovchi timyan o‘ti - 200 mg, melisa barglari - 200 mg, dengiz itshumurt yog‘i - 1,6 mg, Fitoleum tomonidan ishlab chiqarilgan, MChJ, Qozog‘iston) fitopreparatlarining ta‘siriga taqqoslangan holda tadqiq qilindi. Tadqiqot natijalarida “BIOINULA TEA” va “INULA OIL” hamda “INULA KAPSULA” BFQ larini immunotrop faolliklarini aniqlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar davomida moddalarning hayvonlar organizmi rezistentligini ta‘minlovchi fagotsitlarga ta‘sirining qiyosiy tahlili o‘tkazildi.

